

TARIXIY SHAHAR MUHITINI SAQLASHDA “TIRIK MEROS” (LIVING HERITAGE) KONSEPSIYASI

Mamirova Surayyo Shuxrati qizi

E-mail: surayyomamirova621@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy shahar muhitini saqlashda “tirik meros” konsepsiyasining mohiyati va ahamiyati tahlil qilinadi. Tirik meros shaharlarning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutuvchi qadimiy an‘analalar, hunarmandchilik, urf-odatlar va mahalliy turmush tarzini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda tarixiy shaharlarning zamonaviy urbanizatsiya jarayonida yo‘qolib borayotgan madaniy qadriyatlarini asrash, ularni turizm va ta‘lim tizimi orqali qayta jonlantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, “tirik meros” yondashuvi madaniy merosni faqat jismoniy ob‘ekt sifatida emas, balki uni yaratgan jamiyatning tirik ifodasi sifatida talqin etilishi zarurligi asoslab beriladi. Maqola yakunida tarixiy shahar muhitida merosni boshqarishning innovatsion strategiyalari ta’klifetiladi.

Kalit so‘zlar. Tirik meros, tarixiy shahar, madaniy meros, urbanizatsiya, merosni saqlash, madaniy qadriyatlar, turizm, jamiyat ishtiroki.

Annotation. This article explores the concept of “living heritage” in the preservation of historical urban environments. Living heritage encompasses traditional crafts, customs, rituals, and lifestyles that continue to shape the social, cultural, and economic life of historic cities. The study examines ways to preserve endangered cultural values amid rapid urbanization and discusses the revitalization of intangible heritage through tourism, education, and community engagement. The paper argues that heritage management should move beyond the physical preservation of monuments and embrace living traditions as dynamic expressions of cultural identity. Innovative strategies for integrating living heritage into contemporary urban planning are proposed at the end of the study.

Key words. living heritage, historic city, cultural heritage, urbanization, heritage preservation, cultural values, tourism, community participation.

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция «живого наследия» в контексте сохранения исторической городской среды. Под живым наследием понимаются традиционные ремёсла, обычаи, обряды и образ жизни, которые продолжают играть важную роль в культурной и социальной структуре исторических городов. В исследовании анализируются пути сохранения исчезающих культурных ценностей в условиях урбанизации, а также возможности их возрождения через туризм, образование и участие местного сообщества. Подчёркивается необходимость рассматривать культурное наследие не только как материальные объекты, но и как живое

проявление общества, их создавшего. В заключение предлагаются инновационные подходы к управлению наследием в исторических городах.

Ключевые слова: *живое наследие, исторический город, культурное наследие, урбанизация, сохранение наследия, культурные ценности, туризм, участие сообщества.*

Kirish. Bugungi globallashuv va tez sur'atlar bilan kechayotgan urbanizatsiya davrida tarixiy shaharlarning asl qiyofasini, madaniy qatlamlarini va mahalliy an'analarini saqlab qolish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Zamonaviy qurilish, texnologik o'zgarishlar va turizmning kengayishi natijasida ko'plab tarixiy shaharlarning me'moriy muhitida o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa nafaqat moddiy, balki nomoddiy madaniy merosning ham yo'qolishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, tarixiy shaharlarni asrashda "tirik meros" konsepsiyasi muhim metodologik yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda. "Tirik meros" tushunchasi faqatgina qadimiy binolarni yoki tarixiy obidalarni emas, balki ularning atrofida shakllangan turmush tarzi, urf-odatlar, hunarmandchilik, xalq bayramlari, mahalliy mehnat an'analari, oshxonalar madaniyati va ijtimoiy aloqalarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, bu konsepsiya merosni faqat "o'tmishning muzeylashtirilgan qoldig'i" emas, balki bugungi kunda ham yashab turgan, rivojlanayotgan, jamiyat hayotiga faol ta'sir ko'rsatayotgan tizim sifatida talqin etadi. BMTning UNESCO tashkiloti tomonidan ilgari surilgan "living heritage" konsepsiyasi bugungi kunda butun dunyo bo'ylab tarixiy shaharlarni saqlashning asosiy tamoyillaridan biriga aylangan. Ushbu yondashuvga ko'ra, tarixiy muhitni himoya qilish faqat restavratsiya yoki konservatsiya bilan cheklanmasligi, balki mahalliy aholining madaniy amaliyotlarini, qadriyatlarini, ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi lozim. Shaharlarning "tirikligi" – u yerdagi insonlar, ularning kundalik hayoti va madaniy ifodalarida namoyon bo'ladi. O'zbekiston shaharlarida, xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi tarixiy markazlarda tirik merosning turli ko'rinishlarini uchratish mumkin. Ular asrlar davomida shakllangan hunarmandchilik maktablari, diniy marosimlar, me'moriy makonlar va mahalla tizimida o'z aksini topgan.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqotda tarixiy shahar muhitini saqlash jarayonida "tirik meros" konsepsiyasining nazariy asoslari va amaliy qo'llanish tajribalari o'rganildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida xalqaro tashkilotlarning rasmiy hujjatlari, xususan UNESCO, ICOMOS va ICCROM tomonidan e'lon qilingan merosni saqlashga oid konseptual hisobotlar, shuningdek, O'zbekiston, Yaponiya, Fransiya, Italiya va boshqa davlatlardagi tarixiy shaharlarni boshqarish bo'yicha amaliy tajribalar tanlab olindi. Ma'lumotlar manbalari sifatida ilmiy maqolalar, xalqaro konferensiya materiallari, hukumat qarorlari hamda shaharsozlikka oid arxiv hujjatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda sifat tahlili (qualitative analysis) usulidan keng foydalanildi. Bu yondashuv yordamida tarixiy shaharlar muhitidagi tirik meros

elementlari — ya’ni, hunarmandchilik, diniy marosimlar, xalq bayramlari, mahalla faoliyati, oshxona madaniyati va boshqa nomoddiy meros shakllari — chuqur o’rganildi. Shuningdek, so’nggi o’n yillikda Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlarida amalga oshirilgan restavratsiya loyihalari tahlil qilinib, ularning tirik meros konsepsiyasi bilan bog’liqlik darajasi aniqlanib chiqildi. Taqqoslash (comparative method) usuli yordamida O’zbekiston tajribasi Yaponiyaning “Living National Treasures”, Fransiyaning “Ville Historique” hamda Italiya shaharlarining “Cultural Landscape Protection” dasturlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv milliy meros siyosatini xalqaro tajribalar bilan bog’lash, o’xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini berdi. Natijada, har bir mamlakatda tirik merosni saqlashda asosiy urg’u mahalliy hamjamiyatning ishtirokiga qaratilgani aniqlandi. Shuningdek, sotsiologik kuzatuv va intervyu usullari ham qo’llanildi. Tadqiqot doirasida Buxoro va Xiva shaharlarida istiqomat qiluvchi 40 dan ortiq mahalla faollari, hunarmandlar, tarixiy yodgorliklar qo’riqxonalarini xodimlari bilan suhbatlar o’tkazildi. Bu intervyular orqali tirik merosni saqlashda mahalliy aholining o’mi, ularning amaliy tajribasi va merosni “tirik” tutishdagi tashabbuslari o’rganildi. Bundan tashqari, tizimli tahlil (system analysis) metodi orqali tirik merosni saqlashning institutsional mexanizmlari — ya’ni, davlat, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar o’rtasidagi hamkorlik tuzilmasi tahlil qilindi. Bu orqali merosni boshqarishning ko’p darajali modeli shakllantirildi, unda davlat siyosati, jamoatchilik ishtiroki va iqtisodiy barqarorlikning o’zaro bog’liqligi asoslab berildi. Olingan barcha ma’lumotlar mavzulararo tahlil (interdisciplinary approach) asosida umumlashtirildi. Tarix, shaharsozlik, madaniyatshunoslik va sotsiologiya fanlari integratsiyasi orqali tirik meros konsepsiyasining kompleks mohiyati ochib berildi. Ushbu yondashuv nafaqat tarixiy me’moriy obidalarini, balki ular atrofidagi ijtimoiy hayotni ham saqlash zarurligini asoslab berdi.

1-jadval. “Tirik meros” konsepsiyasining asosiy tamoyillari

Tamoyil nomi	Mazmuni	Amaliy qo’llanilish misoli
Davomiylik (Continuity)	Tarixiy shahar hayotida madaniy, diniy va iqtisodiy an’analarni davom ettirish	Buxoro va Xivada qadimiy hunarmandchilik turlarining saqlanishi
Moslashuvchanlik (Adaptability)	Yangi urbanistik jarayonlarga moslashgan holda tarixiy merosni saqlash	Samarqanddagi eski shahar hududida turizm infratuzilmasi bilan uyg’unlashtirish
Jamoaviy ishtirok (Community participation)	Mahalliy aholining merosni saqlash jarayonida faol ishtirokini ta’minlash	Mahalla kengashlari va hunarmandlar birlashmasining roli
Barqarorlik (Sustainability)	Ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash	Energiya tejovchi texnologiyalarni tarixiy binolarga joriy etish

Tamoyil nomi	Mazmuni	Amaliy qo'llanilish misoli
Madaniy identitetni mustahkamlash	Shahar aholisining o'zligini saqlash va mustahkamlash	Mahalliy festival va marosimlarni qayta tiklash

Birinchi jadval — “‘Tirik meros’ konsepsiyasining asosiy tamoyillari” deb nomlanib, mazkur yondashuvning mohiyatini ochib beradi. Jadvalda davomiylik, moslashuvchanlik, jamoaviy ishtirok, barqarorlik va madaniy identitetni mustahkamlash kabi tamoyillar yoritilgan. Ushbu tamoyillar tarixiy shaharlarni saqlashda nafaqat moddiy, balki nomoddiy qadriyatlarning ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan, Buxoro, Xiva va Samarqand kabi shaharlarning tarixiy muhitida “tirik meros” elementi sifatida hunarmandchilik, diniy marosimlar va an'anaviy turmush tarzi saqlanib qolgan.

2-jadval. Tarixiy shahar muhitini saqlashda “tirik meros” yondashuvining afzallik va muammolari

Asosiy yo'nalish	Afzalliklari	Muammolari
Mahalliy aholi ishtiroki	Merosni saqlash jarayoniga aholining bevosita jalb etilishi	Yetarli ijtimoiy rag'bat yo'qligi
Iqtisodiy rivojlanish	Turizm va hunarmandchilik orqali barqaror daromad manbai yaratish	Tijorat bosimi ostida tarixiy qadriyatlarning yo'qolishi
Ekologik muvozanat	An'anaviy qurilish materiallari va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish	Ekologik nazoratning sustligi
Madaniy merosni targ'ib qilish	Yosh avlodda milliy g'urur va identitetni shakllantirish	Global madaniyat ta'siri ostida qiziqishning kamayishi
Urbanistik uyg'unlik	Yangi infratuzilmani tarixiy arxitektura bilan uyg'unlashtirish	Rejalashtirishda arxitektura buzilishlari va tartibsizliklar

Ikkinchi jadval — “Tarixiy shahar muhitini saqlashda ‘tirik meros’ yondashuvining afzallik va muammolari” nomi ostida keltirilgan bo'lib, konsepsiyaning amaliy qo'llanishini tahlil qiladi. Bu jadvalda yondashuvning ijobiy jihatlari (aholi ishtiroki, iqtisodiy barqarorlik, ekologik muvozanat, madaniy qadriyatlarni targ'ib etish) va mavjud muammolari (ijtimoiy rag'batning pastligi, tijorat bosimi, global madaniyat ta'siri, rejalashtirishdagi muvofiqlik yetishmasligi) ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqot muhokamasi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarixiy shahar muhitini saqlashda “tirik meros” konsepsiyasi an'anaviy restavratsiya yondashuvidan tubdan farq qiladi. Agar klassik merosni muhofaza qilish uslublari asosan binolar va

yodgorliklarning jismoniy saqlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tirik meros konsepsiyasi ularning ichida yashayotgan madaniy amaliyotlarni, inson faoliyatini va ijtimoiy munosabatlarni asrashni maqsad qiladi. Bu yondashuv madaniy merosni “faol ijtimoiy organizm” sifatida talqin etadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonning tarixiy shaharlarida, xususan, Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlarida tirik meros elementlari hali ham faol saqlanib qolgan. Hunarmandchilik, mahalla institutlari, xalq bayramlari, diniy marosimlar va oshxona madaniyati bu shaharlarning ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, urbanizatsiya va turizmning keskin o‘sishi natijasida ayrim tirik meros unsurlari tijoratlashib, o‘zining asl ma‘nosini yo‘qotish xavfi ostida qolmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonlarni to‘g‘ri boshqarish uchun davlat siyosatida madaniy merosni faqat iqtisodiy resurs sifatida emas, balki jamiyatning tirik qadriyati sifatida talqin etish zarur. Tirik meros konsepsiyasini amaliyotga joriy etishda eng muhim omillardan biri — mahalliy hamjamiyatning faol ishtirokidir. Buxoro va Xiva shaharlarida o‘tkazilgan intervyu natijalariga ko‘ra, aholining o‘z merosiga egalik hissi kuchli bo‘lsa, ular uni asrashga ham mas‘uliyat bilan yondashadi. Shu sababli, tirik merosni saqlashda yuqoridan pastga yo‘nalgan boshqaruv modeli o‘rniga, pastdan yuqoriga qarab ishlovchi, ya‘ni jamoatchilikni jalb etuvchi model samaraliroq natijalar beradi. Bu yondashuv UNESCO tomonidan ilgari surilgan “community-based heritage management” tamoyillariga to‘liq mos keladi. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlaridan biri — merosni asrashda iqtisodiy barqarorlikning o‘rni. Aholining turmush darajasi va tirik meros amaliyotlarining iqtisodiy foydasi o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Hunarmandchilik, mahalliy turizm, gastronomik festivallar va folklor tadbirlari orqali nafaqat madaniy qadriyatlar saqlanadi, balki mahalliy iqtisodiyot ham rivojlanadi. Shu ma‘noda, tirik merosni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uni uzoq muddatli barqaror saqlashning asosiy sharti hisoblanadi. Yana bir muhim xulosa shundan iboratki, tirik merosni boshqarishda ilm-fan, ta‘lim va texnologiyaning ham roli katta. Raqamli arxivlar, 3D modellash, virtual muzeylar kabi innovatsion vositalar yordamida tirik meros elementlarini hujjatlashtirish, ularni yosh avlodga yetkazish va xalqaro maydonda targ‘ib qilish imkoniyatlari ortmoqda.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, tarixiy shahar muhitini saqlashda “tirik meros” konsepsiyasi bugungi global urbanizatsiya sharoitida madaniy barqarorlikni ta‘minlovchi eng muhim yondashuvlardan biridir. Mazkur konsepsiya tarixiy shaharlarni faqat jismoniy me‘moriy yodgorliklar majmui sifatida emas, balki ularning ichida davom etayotgan madaniy amaliyotlar, urf-odatlar, an‘anaviy bilimlar va inson faoliyatining uzluksiz jarayoni sifatida ko‘radi. Shu boisdan, “tirik meros” yondashuvi moddiy va nomoddiy merosni bir butun tizimda boshqarishni taqozo etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, agar tarixiy shaharlar faqat restavratsiya yoki turistik maqsadlarda yangilansa, ularning ijtimoiy “ruhi” — ya‘ni, tirik madaniy hayoti so‘nib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. Recommendation on the Historic Urban Landscape. Paris, 2011.
2. Rapoport, A. The Meaning of the Built Environment: A Nonverbal Communication Approach. University of Arizona Press, 1990.
3. Johnston, C. What is Social Value? A Discussion Paper. Australian Heritage Commission, Canberra, 1992.
4. Akagawa, N. Heritage Conservation in Japan's Cultural Diplomacy: Heritage, National Identity and National Interest. Routledge, London, 2014.
5. UNESCO. World Heritage List: Historic Centres of Bukhara, Samarkand and Khiva. UNESCO World Heritage Centre, Paris, 2020.
6. Smith, L. Uses of Heritage. Routledge, London and New York, 2006.
7. European Commission. Cultural Heritage in Action: Good Practices for Sustainable Heritage Management. Brussels, 2022.
8. Harrison, R. Heritage: Critical Approaches. Routledge, London, 2013.
9. ICOMOS. Principles for the Conservation of Historic Cities, Towns and Urban Areas (Washington Charter). Paris, 2017.
10. Murtazayeva, S. Tarixiy shahar muhitini asrashda mahalliy an'analar va tirik merosning o'rni. "Madaniyat va meros" jurnali, №4, 2023, 55–62-betlar.